

FITRATSHUNOS OLIM**Bektasheva Gulbahor Rayimjonovna**

KUAF O'zbek va rus filologiyasi kafedrası

katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)

Annotatsiya: Ushbu maqolada professor B.Qosimovning Fitratshunos olim sifatidagi tadqiqatlari talqin etilgan. Ijodkorning adabiy-badiiy qarashlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: dramaturgiya, jadidchilik, mansura, drama, kanon, adabiy meros

Annotation: This article interprets the research of Professor B. Qosimov as a scholar of Fitrat studies. The author's literary and artistic views are analyzed.

Keywords: dramaturgy, Jadidism, mansura, drama, canon, literary heritage.

Аннотация: В данной статье интерпретируются исследования профессора Б. Косимова как фитратоведа. Анализируются литературно-художественные взгляды автора.

Ключевые слова: драматургия, джадидизм, мансура, драма, канон, литературное наследие.

Zamonaviy adabiyotshunoslik fani Fitrat misolida o'zini namoyon qilganligini Begali Qosimov tadqiqotlarida ham ko'rish mumkin. Fitrat birgina yangi adabiyot ilmi emas, biz uchun tamom begona bo'lgan yangi adabiy-badiiy tur – dramaturgiyaga asos solganligini qayd etar ekan, olim o'zigacha yozilgan mavjud manbalardagi ilgari surilgan fikrlarni chuqur o'rganadi, ma'lum tadqiq kanonlari yangi fikrlarni tug'ilishiga turtki bo'ladi va talqin doirasini yanada kengaytiradi. Shuningdek, Fitrat ijodi xususida ham xolis ilmiy fikrlarni ilgari suradi.

Mavjud manbalarda ta'kidlanganidek, Fitrat o'z davridayoq zamondoshlari e'tiboriga tushgan va e'tirof etilgan edi. Jumladan, Hoji Muin 1912-yilda Istanbulda bosilgan "Munozara" asarini o'zbekchaga tarjima qilib, "Turkiston viloyatining gazetasi"da chop ettirdi. 1916-yilda "Turkestanskiye vedomosti" gazetasida V.B.Andreevning u haqidagi taqrizi bosildi. Sho'ro davrining ilk yillarida akademik A.N.Samoylovich Fitrat faoliyatiga alohida baho berib, bir qator maqolalarida, shuningdek, adabiyotshunos va tanqidchi Abdurahmon Sa'diy, Nazir To'raqulov, Vadud Mahmud kabilar Fitrat va uning adabiy merosiga alohida munosabat bildirdilar. Ma'lum vaqtlargacha Fitratning adabiy qarashlariga zamon nuqtai nazaridan baho berdilar. Mustaqillikka qadar ham, istiqlol yillarida ham professor B.Qosimov Fitrat haqidagi turlicha qarashlarni umumlashtirib, "Fitratga qarshi hujum 20-yillarning ikkinchi yarmida avjiga minganini" aytib, uning ijodiga bo'lgan salbiy munosabat butun jadidlar faoliyatiga bo'lgan qarshiliklarning boshlanish nuqtasi ekanligini ta'kidlaydi. B.Qosimovning Fitrat ijodiga munosabat masalasiga oid qarashlar haqidagi fikrlarini quyidagicha belgilash mumkin:

birinchidan, uning "Eng eski turk adabiyoti namunalari adabiyotimiz tarixi uchun materiallar" va "O'zbek adabiyoti namunalari" kitoblari sho'ro mafkurachilarining ilk nishoniga aylandi. Sho'ro mafkurachilari ushbu katta kitob atrofida janjal chiqardilar. Fitratni "panturkist", "panislomist", "opportunist" kabi siyosiy ayblar bilan qoralab chiqardilar. Ularga javoban Fitrat matbuotda "Yopishmagan gajaklar" maqolasini e'lon qiladi;

ikkinchidan, Hamid Olimjonning "Fitratning adabiy ijodi haqida" maqolasida Fitrat ijodi kommunistik mafkura nuqtai nazaridan tahlil qilingan edi. Bu maqola J.Boybo'latovlar pozitsiyasini mustahkamlab berdi;

uchinchidan, “Qiyomat” asari ateistik talqin qilinib, ko‘p yillar mobaynida sho‘ro mafkurasiga xizmat ettirildi. Fitrat nomi 60-yillarning ikkinchi yarmidan biroz ko‘zga tashlanadigan bo‘ldi. Professor B.Qosimovning fikricha, buning boisi bu yillar “ilmiliq” davri bo‘lgandi;

to‘rtinchidan, “Fitrat hayoti va ijodining yangicha talqini 70-yillarning o‘rtalaridan ko‘zga tashlana boshladi. Bu borada prof. E.Karimovning “O‘zbek adabiyotida realizm taraqqiyoti” kitobi jiddiy qadamlardan bo‘ldi.” 1983-yilda Ahmad Aliyevning “Adabiy meros va zamonaviylik” kitobida Fitrat ijodiga obyektiv qarash payti kelganligi haqidagi ilk mulohazalar bayon etilgan edi;

beshinchidan, jamiyatdagi 1985-yildan bohlangan o‘zgarishlar Fitrat ijodiga bir qadar xolislik bilan yondashish imkoniyatlarini bera boshladi. Taniqli adabiyotshunos olimlar Izzat Sulton va Salohiddin Mamajonovlarning 1988-yil “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida e‘lon qilingan “Madaniyatimizning ikki siymosi” maqolasi bu boradagi harakatlarning ilk debochasi bo‘ldi. 1990-yilda Hamidulla Boltaboyev “Yoshlik” jurnalida “Noma’lum Fitrat” maqolasida ilk bor mashhur adibning asarlar ro‘yxatini tuzib, e‘lon qildi. B.Qosimov mazkur maqolani fitratshunoslikdagi jiddiy ishlarning boshlanishi sifatida yuqori baholaydi;

oltinchidan, mustaqillikdan keyin Fitrat ijodini haqqoniy o‘rganish ilmiy va rejali asosga ko‘chdi. Fitrat adabiy merosini tadqiq etishda, ayniqsa, uning 2000-yilda tanlangan asarlarining chop etilishi ulkan hodisa bo‘ldi. Fitrat ijodi bo‘yicha qilingan keyingi ishlar adib ijodining o‘rganilishini kengaytirdi.

Mashhur rus adabiyotshunosi V.G.Belinskiyning “Nazariya go‘zallik qonunlarining tizimli va uyg‘un birligidir: ammo uning bir kemptik tomoni bor: u ma’lum vaqt doirasida qolib ketadi, tanqid esa beto‘xtov davom etadi, olg‘a boradi, fan uchun yangi materiallar, yangi ma’lumotlar yig‘adi. Bu harakatdagi estetikadir”, - deydi. Chindan ham Fitrat asarlari haqidagi adabiy-tanqidiy tahlillar davr o‘tishi bilan o‘zining haqiqiy bahosini olib kelmoqda. Garchi ularda ko‘proq davr siyosatining ruhi sezilsa ham, aslida bu estetik jarayon hisoblanadi. Adabiy-tanqidiy qarashlarga estetik hodisa sifatida yondashish, ayniqsa, Begali Qosimovning qarashlarida yetakchilik qiladi. Fitrat ijodini yangidan kashf etishga, uning badiiy, nazariy va ilmiy asoslarini chuqur tahlil etishga qaratiladi. Jumladan, olim Fitrat lirikasini tahlil qilar ekan, mutaxassislarning shoirni o‘zbekcha she‘rlar adadi kam bo‘lsa ham, ularda tasvirlangan g‘oya va fikrlar butun millatning dardi hamda orzulari ekanligini ta’kidlaydi. “Yurt qayg‘usi” nomli turkum she‘rlaridan tortib, vatanparvarlik to‘plami bo‘lgan “Sayha”gacha bo‘lgan asarlarida Fitratning ijodkor sifatidagi qiyofasi namoyon bo‘lganini isbotlab beradi. Fitratning poetik arsenal imkoniyatlaridan keng foydalana olgan san’atkor shoir bo‘lganiga o‘quvchini ishontiradi. Hatto ishqiy-intim she‘rlarida ham mahzunlik, umidsizlik bo‘rtib turadi. Olim buni “Sho‘rolarning qatag‘on siyosati borasidagi dardli, iztirobli o‘ylar” ekanini ta’kidlaydi. B.Qosimov “mutafakkir adib va davlat arbobi Fitratning hayoti va ijodini, konkret asarlari, ular chop etilgan vaqt, o‘sha vaqtda ro‘y bergan voqealar fonida tahlil etadi”. Prof.B.Qosimovning fitratshunoslik borasidagi xizmatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Olim Ne‘matulla Muhtaramning fikrlariga asoslanib, Fitratning otasi Abdurahimboy degan kishi ekanligi va sarroflik bilan shug‘ullanganligini ma’lum qiladi. Sarrof so‘zi lug‘atlarda “pul maydalovchi”, “pul almashtiruvchi” deb izohlanadi. “Tazkirat ush-shuaro” muallifi Fitratni ham otasi kabi “sarrof” deb atashi, “Hoji mulla Abdulrauf” deb tanishtirishi bejiz emas. Keyingi tadqiqotlarda Fitratning otasi savdogarchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan dindor, ziyoli shaxs bo‘lganligi haqida yozilgan . B.Qosimov 37-yildagi

sud-tergov ma'lumotlarni kuzatish natijasida Fitratning 1909-1913-yillarda Istanbulda "Dorilmuallimin"da o'qiganligini aniqlaydi;

B.Qosimov Fitratning Istanbulda aka-uka Usmonxo'ja va Atoxo'ja Po'latxo'jayevlar hamda Mazhar maxzum, Muqimbek kabi hamshaharlari bilan birga ta'lim olganligini isbotlaydi. Uning Buxorodagi jadidchilik faoliyatini o'rganar ekan, jadidlarning Buxoroda ikkiga: "o'ng" va "so'l"ga ajralganligini, o'ngga Abduvohid Burhonov, so'lga Fitrat bosh bo'lganligini aytadi;

"Yosh buxorolik"larning mustaqillik va demokratiya haqidagi orzularini Fitrat "Yurt qayg'usi" deb baholagan edi. U Turkiston muxtoriyati e'lon qilingan 27-noyabr tunini "milliy laylatulqadrimiz" deb ataydi;

B.Qosimov o'z tadqiqotlarida Fitratning mansuralarida she'riy shakl talablaridan ko'ra ijtimoiy mazmun ustun ekanligini, aruz vaznida yozilgan she'rlarida ham shu kabi yangicha talqinlar o'z ifodasini topganligini e'tirof etadi. "Yurt qayg'usi" turkumini yakunlovchi "Onam sizni qutqarmoq uchun jonmi kerakdir?" satri bilan boshlangan she'rda "muxtoriyat g'alabasining nash'u namosi balqib turgan, uyg'ongan xalq bilan birgalik tuyg'usi, otalik sharafi va ular oldidagi burch, el-yurt xizmati sururi" ifodalangan ijtimoiy muammolar yoritilganligini matn mazmuniga tayangan holda izohlaydi. Shuningdek, olim "Temur oldinda" she'rini tahlilga tortar ekan, mansuradagi iqror ohangida u qadar to'liq rioya etilmagan ichki fe'l qofiyalarda, o'ziga xos ritm hissiyotni ifodalashda Fitrat "o'zbekona uslub" yaratganini ta'kidlaydi. Chunki jahon tajribasida uchraydigan mansuralardan Fitrat qalamiga mansub mansuralar shakldagi o'ziga xoslik, mazmundagi keskinlik, ijtimoiy ruhiyati yuksakligi bilan ajralib turadi. B.Qosimov Fitrat she'r va mansuralarini tahlil qilar ekan, ularning badiiy tomonlaridan shoirning dunyoqarashiga hamohang jihatlarni topadi. Olim o'z fikrlarini bayon etishda badiiylikdan o'rni bilan foydalanadiki, bu munaqqid ilmiy tafakkurining badiiy tafakkur bilan uyg'unlashuvini ta'minlaydi.

Adabiyotlar

1. Қосимов Б. Уйғонган миллат маърифати. – Тошкент: Маънавият, 2011. – Б. 227.
2. Алиев А. ААбдулрауф Абдурахим ўғли Фитрат. – Тошкент, 1984. , Фидойилар. – Тошкент, 1990; Қосимов Б. Маслакдошлар. – Тошкент: Шарқ, 1994; Ғаниев И. Фитрат, эътиқод, ижод. – Тошкент, 1994. Ғаниев И. Фитратшунослик. – Бухоро, 1994.; Болтабоев Ҳ. Абдурауф Фитрат – адабиётшунос. – Тошкент: Ёзувчи, 1996., Фитратнинг илмий мероси. – Тошкент: 1996.,Фитрат ва жади́дчи́лик. – Тошкент: Ўзбекистон миллий кутубхонаси, 2007; Курбонова М. Фитрат – тилшунос. – Тошкент, 1996.
3. Белинский В. Танланган асарлар. –Тошкент, 1959. – Б. 234.
4. Назаров Б., Расулов А., Ахмедова Ш., Қахрамонов Қ. Ўзбек адабий танқидчилиги тарихи. – Б. 216. <https://www.ziyouz.com>)
5. Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жади́дчи́лик. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Кутубхонаси, 2007. – Б. 5.